•morfologik tahlil va lemmatizatsiya modullarini yanada takomillashtirish lozim;
•huquqiy matnlarni semantik segmentlarga ajratish usullarini rivojlantirish maqsadga muvofiq;
•o‘zbek tiliga mos transformer modellarni kengaytirish va optimallashtirish zarur;
•real amaliyotda qo‘llash uchun huquqiy chatbot va maslahat tizimlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan model o‘zbek tilida huquqiy savol-javob tizimlarini yaratish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zhong H., Xiao C., Tu C., Zhang T., Liu Z., Sun M. How Does NLP Benefit Legal System: A Summary of Legal Artificial Intelligence. Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 2020, pp. 5218–5230.

(2). Martinez-Gil J. A survey on legal question-answering systems. Computer Science Review, 2023, vol. 48, Article 100552.

(3). Ariai F., Demartini G. et al. Natural Language Processing for the Legal Domain: A Survey of Tasks, Datasets, Models, and Challenges. ACM Computing Surveys, 2025.

(4). Rakhimova D., Turarbek A., Karyukin V., Sarsenbayeva A., Alieyev R. Legal AI in Low-Resource Languages: Building and Evaluating QA Systems for the Kazakh Legislation. Computers, 2025, vol. 14, № 9, Article 354.

(5). Mansurov B., Mansurov A. UzBERT: Pretraining a BERT Model for Uzbek. arXiv, 2021, arXiv:2108.09814.

(6). Kuriyozov E., Vilares D., Gómez-Rodríguez C. BERTbek: A Pretrained Language Model for Uzbek. Proceedings of SIGUL 2024 / LREC-COLING 2024, 2024.

(7). Robertson S., Zaragoza H. The Probabilistic Relevance Framework: BM25 and Beyond. Foundations and Trends in Information Retrieval, 2009, vol. 3, № 4, pp. 333–389.

(8). Devlin J., Chang M.W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. Proceedings of NAACL-HLT, 2019, pp. 4171–4186.

Bakirova Gulasal Davlatovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktorant (PhD), Surxandaryo, O‘zbekiston)

JEYMS JOYSNING “ULISS” ROMANIDA OKKAZIONALIZMLARNING MORFOLOGIK-STILISTIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Uliss” romanida morfologik stilistik vosita sifatida okkazionalizmlarning markaziy o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot asarda uchraydigan muallifga xos, normadan chetga chiqqan til birliklarining strukturaviy va funksional xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Okkazionalizmlarning qo‘shma birliklar, semantik deformatsiya, morfologik kompressiya va takrorlash kabi turlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, okkazionalizmlar nafaqat stilistik bezak, balki ma’no yaratish, emotsionallikni kuchaytirish va kognitiv jarayonlarni ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ular matnning obrazlilik darajasini oshiradi, tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi hamda inson tafakkurining assotsiativ va noan’anaviy xususiyatlarini aks ettiradi. Kognitiv-stilistik yondashuv nuqtai nazaridan, ushbu birliklar o‘quvchini faol interpretatsiyaga jalb etadi va matnni dinamik semantik tizimga aylantiradi.*

Kalit so‘zlar: *okkazionalizm, morfologik stilistika, lingvopoetika, Jeyms Joys, Uliss, modernizm, kognitiv stilistika, til eksperimenti, obrazlilik, semantik deformatsiya.*

Бакирова Гуласал Давлатовна (Докторант (PhD), Денауский институт предпринимательства и педагогики, Сурхандарья, Узбекистан)

МОРФОЛОГИЧЕСКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОККАЗИОНАЛИЗМОВ В РОМАНЕ ДЖЕЙМСА ЖОЙСА «УЛИСС».

Аннотация. *Анализ романа «Улисс» показывает, что его лингвопоэтическая структура в корне сформирована взаимодействием модернистского и авангардного движений. Интегрируя разнообразные стилистические и когнитивные элементы, Джойс создает текст, бросающий вызов традиционным представлениям о языке, повествовании и значении. Использование в романе потока сознания, ассоциативного мышления и лингвистических экспериментов отражает сложность человеческого познания и динамичный характер восприятия. В то же время, его взаимодействие с различными художественными движениями обогащает его эстетические и интерпрета-*

ционные возможности. В конечном итоге, «Улисс» можно понимать как всеобъемлющую модель сознания, где язык служит не только средством выражения, но и самим средством мышления.

Ключевые слова: *окказионализм, морфологическая стилистика, лингвопоэтика, Джеймс Джойс, Улисс, модернизм, когнитивная стилистика, языковые эксперименты, образность, семантическое отклонение.*

Bakirova Gulasal Davlatovna (Doctorate (PhD), Denau Entrepreneurship and Pedagogy Institute Surkhandarya, Uzbekistan)

MORPHOLOGICAL-STYLISTIC AND COGNITIV CHARACTIRISTICS OF OCCASIONALISMS IN JAMES JOYCE'S "ULYSSES"

Annotation. *This article examines the central role of occasionalisms as a morphological stylistic device in shaping the unique linguistic and stylistic features of Ulysses. The study focuses on the analysis of non-standard, author-specific lexical formations that emerge within the text and function as key elements of Joyce's experimental language. Particular attention is paid to the structural types of occasionalisms, including compound formations, semantic deviations, morphological compression, and reduplication. The research demonstrates that occasionalisms in Ulysses are not merely stylistic ornaments but function as essential mechanisms of meaning construction, emotional expression, and cognitive modeling. They contribute to the creation of complex imagery, enhance the expressive potential of language, and reflect the associative and non-linear nature of human thought. From a cognitive-stylistic perspective, these formations activate the reader's interpretive processes and transform the text into an interactive semantic system. The findings confirm that occasionalisms occupy a central position in Joyce's lingvopoetic framework and play a crucial role in the development of his individual authorial style.*

Key words: *Occasionalism, morphological stylistics, lingvopoetics, James Joyce, Ulysses, modernism, cognitive stylistics, language experimentation, imagery, semantic deviation.*

Kirish. Modernistik eksperimentlarning eng murakkab va yuksak namunalaridan biri Jeyms Joysning "Uliss" romanidir. Mazkur asar nafaqat sujet va kompozitsiya jihatidan, balki lingvistik tashkil topishi nuqtayi nazaridan ham, XX asr badiiy tafakkurining eng muhim hodisalaridan biri hisoblanadi. Roman tilida ong oqimi texnikasi, sintaktik fragmentatsiya, semantik deformatsiya, intertekstual qatlamlar hamda morfologik eksperimentlar keng qo'llanilgan. Ayniqsa, Joys tomonidan yaratilgan individual muallifiy birliklar – okkazionalizmlar asarning lingvopoetik tizimida muhim o'rin egallaydi. Shklovskiyning fikriga ko'ra, san'atning vazifasi odamlarning dunyoni yangicha tarzda anglashdir. Bu usul "odamlarni nomutanosiblashtirish" yoki "g'alati qilish"dir, "san'at texnikasi obyektlarni "notanish" qilish, shakllarni qiyinlashtirish, idrok etishning qiyinligi va davomiyligini oshirishdir, chunki idrok qilish jarayoni o'z-o'zidan estetik maqsad bo'lib, uni uzaytirish kerak" [1;522-b.].

Okkazionalizmlar muallifning individual uslubini namoyon etuvchi, tilning mavjud me'yorlaridan chekinish asosida hosil qilinadigan birliklar bo'lib, ular badiiy matnda yangi semantik, ekspressiv va assotsiativ imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Joys ijodida bunday birliklar inson tafakkurining uzluksiz, assotsiativ va fragmentar tabiatini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, "Uliss" romanidagi morfologik okkazionalizmlar tilni "jonli ong modeli"ga aylantirib, o'quvchini faol interpretatsiya jarayoniga jalb qiladi. Shu jihatdan, roman tilidagi okkazional birliklarni o'rganish nafaqat stilistik, balki kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – "Uliss" romanida uchraydigan morfologik okkazionalizmlarning stilistik va kognitiv funksiyalarini aniqlash, ularning lingvopoetik tizimdagi o'rnini tahlil qilish hamda Joyce individual uslubini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot davomida morfologik eksperimentlarning strukturaviy xususiyatlari, semantik deformatsiya jarayonlari hamda okkazional birliklarning o'quvchi tafakkuriga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti sifatida Jeyms Joysning "Uliss" romani tanlangan bo'lsa, predmetini romandagi morfologik okkazionalizmlar va ularning lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida lingvopoetik tahlil, stilistik tahlil, morfologik tahlil hamda kognitiv interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari Joys poetikasida okkazionalizmlar tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ular badiiy matnda semantik ko'pqatlamlilikni yuzaga keltirib, o'quvchini faol kognitiv interpretatsiyaga undashi bilan ham ahamiyatlidir. Shu sababli "Uliss" romanidagi okkazionalizmlar nafaqat individual muallifiy birliklar, balki modernistik tafakkurning lingvistik modeli sifatida ham qaralishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Notiq yoki yozuvchi tomonidan bir zumda paydo bo'ladigan biron-bir zaruratni qoplash uchun ixtiro qilingan yangi murakkab so'z [2;78-b.]. Stilistik jihatdan morfemalar matnning eks-

pressivligini kuchaytiradi. Bunda muallif odatiy so‘z yasash modellari bilan bir qatorda, yangi morfologik konstruksiyalarni ham yaratadi. Bu tilshunoslikda morfologik innovatsiya, ya’ni okkazionalizm deb atatladi [3;167-b.]. Okkazionalizm–bu badiiy matnda faqat muallif tomonidan yaratilgan individual so‘z yoki ibora. Okkazionalizm ongsiz xato (malapropizm, metateza, tilning xatosi) yoki stilistik xususiyat (spoonerizm) tufayli yuzaga keladi. “So‘zlarni bema’ni noto‘g‘ri ishlatish, ayniqsa, bir so‘zni unga o‘xshash boshqa so‘z bilan adashtirishda [4;15-b.]. Neologizmning yana bir turi – bu nonce – word (okkazionalizm), ya’ni, ma’-lum bir vaziyatga mos ravishda yaratilgan so‘z. “Nonce so‘zi (XVI asrda “bir marta” degan ma'noni anglatuvchi “nonce” iborasidan olingan) vaqtinchalik foydalanish, bevosita aloqa muammosini hal qilish uchun yaratilgan leksemadir” [5;132-b.]. Nonce so‘zlari adabiy tilning chekkasida qoladi va ko‘pincha ularni yaratgan yozuvchilarni eslatadi. Ular biror narsa yoki hodisaning muhim subyektiv g‘oyasini yoki bahosini belgilash uchun yaratilgan va odatda yo‘q bo‘lib ketadi. Ular kamdan kam hollarda tilga lug‘atning qonuniy birliklari sifatida o‘tadi, lekin ular tilda uning so‘z yasashdagi tug‘ma kuchining doimiy namoyon bo‘lishi sifatida qoladi. Okkazionalizmlar lug‘atni boyitish uchun mo‘ljallanmagan, balki matnni boyitishga qaratilgan dam olish jarayoni bo‘lishi mumkin [6;7–8-b.]. Ular individual uslub mahsuli bo‘lib, ko‘pincha, badiiy-estetik maqsadga xizmat qiladi. Okkazionalizmlar individuallik (muallifga xoslik), kontekstga bog‘liqlik, ekspressivlik, semantik yangilik kabi xususiyatlarga ega. Modernistik adabiyotda, ayniqsa, Joys ijodida, okkazionalizmlar tilning normativ tizimini kengaytirish vositasi sifatida faol qo‘llanadi.

Tadqiqot usullari (Methods). Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi:

–lingvopoetik tahlil – okkazionalizmlarning badiiy va ekspressiv funksiyalarini aniqlash uchun;

–morfologik tahlil – muallif tomonidan yaratilgan noodatiy birliklarning strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish uchun;

–stilistik tahlil – okkazionalizmlarning emotsional va estetik ta’sirini aniqlash uchun;

–kognitiv interpretatsiya – ushbu birliklarning o‘quvchi tafakkuriga ta’sirini tahlil qilish uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot materiali sifatida Jeyms Joysning “Uliss” romani (Penguin Classics, 2000) tanlandi.

Natijalar va muhokama. Joys morfologik darajada quyidagi usullar orqali okkazional birliklar yaratadi: 1. So‘z birikmalarining qo‘shilib ketishi. Bir nechta leksemaning bitta birlikka aylanishi, ong oqimi tezligini aks ettiradi. Masalan: “contransmagnificandjewbangtantiality” [7;47-b.]. Mazkur birlik bir ne-chta morfemik va leksik qatlamlarning sun’iy ravishda qo‘shilishi asosida hosil qilingan okkazionalizmdir.

2. Yangi affikslar yoki noodatiy qo‘llanish. Mavjud affikslarning kutilmagan kontekstda ishlatilishi, semantik kengayish yuzaga keladi. Misol uchun, “Ineluctable modality of the visible” [7;45-b.]. Bu so‘z aslida ingliz tilida mavjud, lekin Joys uni falsafiy va abstrakt kontekstda noodatiy darajada murakkablash-tiradi.

3. Semantik deformatsiya, so‘zning odatiy ma’nosi buziladi, yangi assotsiativ ma’no hosil bo‘ladi. Masalan, “The snotgreen sea” [7;3-b.]. Oddiy ingliz adabiyotida dengiz ko‘pincha, *blue, beautiful, calm* kabi poetik epitetlar bilan tasvirlanadi. Joys esa snot (“burun shillig‘i”) green birikmasi orqali dengiz obra-zining an’anaviy estetik ma’nosini buzadi va shu orqali, semantik deformatsiya hosil qiladi. Bu yerda green odatiy rang ma’nosida qoladi, biroq snot komponenti unga jirkanchlik,fiziologiklik, naturalistik tasavvur yuklaydi.

4. Fonetik va morfologik sintez tovush o‘yinlari bilan bog‘langan morfemik shakllar tilning akustik va semantik qatlamlari birlashadi. Misol sifatida; “Seesoo, hrss, rsseeiss, ooos” [7;62-b.]. Bu birliklar an’-anaviy lug‘aviy ma’noga ega emas, biroq dengiz tovushi, shamol shovqini, to‘lqin ritmini fonetik jihatdan imitatsiya qiladi. 3-qism “Proteus”da Joys o‘zining biografi R.Ellmann “Ulissdagi eng mashhur adabiy vo-sitalar”, ya’ni “ichki monolog” deb atagan narsani qabul qiladi [8;358-b.]. Okkazional birliklar orqali matn-ning emotsional ta’siri ortadi. Ular odatiy til shakllaridan farq qilgani uchun o‘quvchi e’tiborini jalb qiladi. Yangi so‘z shakllari orqali noodatiy obrazlar hosil qilinadi. Bu esa matnni yanada vizual va tasavvurga boy qiladi [9;102-b.]. Joys uslubining asosiy belgilaridan biri aynan okkazionalizmlar hisoblanadi. Ular mual-lifning tilga bo‘lgan ijodiy yondashuvini ko‘rsatadi. Okkazionalizmlar o‘quvchining kognitiv faoliyatini faollashtiradi. Ya’ni, ma’no darhol tushunilmaydi, o‘quvchi interpretatsiya qiladi, yangi assotsiatsiyalar ho-sil qiladi. Shu sababdan matn passiv emas, balki interaktiv bo‘ladi. Baxtinning so‘zlariga ko‘ra, bizning matnimiz yoki nutqimiz “boshqalarning so‘zlari, turli darajadagi boshqalik va turli darajadagi “o‘zimizni-ki” bilan to‘ldirilgan” [10;89-b.].

1-jadval

“Uliss” romani asosida okkazionalizmlar tahlili

№	Misol	Tuzilish turi	Morfologik xususiyat	Stilistik funksiya
1	scrotumtightening [7;3 p.]	qo‘shma okkazionalizm	ikki leksema birikishi	fiziologik+emotsional ta’sir
2	snotgreen [7;45 p.]	rang + sifat sintezi	semantik deformatsiya	obrazlilik
3	contransmagnificandjewbangtantiality 7;47 p.]	birikib yozilish	semantik birlik buzilgan	ilmiy tilni “masxara qilish”
4	love loves to love love [7; 433 p.]	takroriy konstruksiya	morfologik reduplikatsiya	ritm va absurdlik

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, okkazionalizmlar ulissning asosiy stilistik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular morfologik darajada yangilik kiritadi hamda tilni “jonli tafakkur modeli”ga aylantiradi.

Xulosa. “Uliss” romanida okkazionalizmlar morfologik darajadagi stilistik innovatsiyaning markaziy elementi hisoblanadi. Ular orqali Joys tilning normativ chegaralarini kengaytiradi, yangi semantik va emotsional imkoniyatlarni yuzaga keltiradi hamda inson tafakkurining murakkab jarayonlarini badiiy shaklda ifodalaydi. Okkazionalizmlar nafaqat til birliklari sifatida, balki kognitiv mexanizmlar sifatida ham xizmat qiladi. Ular o‘quvchini faol interpretatsiyaga undaydi va matnni ko‘p qatlamli, dinamik tizimga aylantiradi. muayyan kontekstlarda, ular qahramonlarni tasvirlashda yoki mavzuni oldinga surishda foydalidir [11;1177-b.]. Shu sababli okkazionalizmlar Joys lingvopoetikasining ajralmas qismi bo‘lib, uning individual uslubini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Шкловский В. Искусство как приём. Russian Formalist Criticism. eds. L.T.Lemon, M.J.Reis. Lincoln, University of Nebraska Press, 1965, p. 522.

(2). Bauer L. A Glossary of Morphology. Washington D.C., Georgetown University Press, 2004, p. 78.

(3). Abrams M.H., Harpham G G. A Glossary of Literary Terms. Boston, Wadsworth Cengage Learning, 2012, p. 167.

(4). Poix C. Neology in Children’s Literature. A Typology of Occasionalisms. Lexis: Journal in English Lexicology. 2018, № 12, p. 15.

(5). Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge, Cambridge University Press, 2002, p. 132.

(6). Poix C. Neology in Children’s Literature. A Typology of Occasionalisms. Lexis. 2018, № 12, p. 7–8.

(7). Joyce J. Ulysses. London, Penguin Classics, 2000, p. 45.

(8). Ellmann R. Selected Letters of James Joyce. London, Faber & Faber, 1975, p. 358.

(9). Galperin I.R. English Stylistics. Moscow, Higher School Publishing House, 1977, p. 102.

(10). Bakhtin M.M. Speech Genre and Other Late Essays / eds. C.Emerson M.Holquist; trans. W.McGee. Austin, University of Texas Press, 1986, p. 89.

(11). Wu X. The Poetics of Foregrounding: The Lexical Deviation in Ulysses. 1177 p.

Yusupova Umitxan Nazarbaevna (NDPI tayanch doktorantı)

QORAQALPOQ ANTROPONIMIKASI RIVOJLANISHINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada onomastikaning muhim tarmog‘i bo‘lgan antroponimika fanining nazariy asoslari, shakllanish tarixi va badiiy matndagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda qoraqalpoq antroponimikasining shakllanishida rus onomastika maktabi va rus tadqiqotchilarining ilmiy miqyosdagi o‘rni hamda xizmatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada atoqli otlarning leksik-semantik tabiati, konnotativ ma’no imkoniyatlari hamda badiiy antroponimlarning asar qahramonlari obrazini va muallif individual uslubini (idiostilini) ochib berishdagi struktur-funktsional vazifalari tizimli tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *antroponimika, onomastika, rus onomastika maktabi, badiiy antroponim, poetonim, leksik-semantik tizim.*

Юсупова Умитхан Назарбаевна (базовый докторант, Нукусский государственный педагогический институт)

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КАРАКАЛПАКСКОЙ АНТРОПОНИМИКИ

Аннотация. *В данной статье освещаются теоретические основы, история формирования и роль в художественном тексте антропонимики, являющейся важной отраслью ономастики. В*